



O'zbekiston Respublikasi  
Ta'limni rivojlantirish respublika  
ilmiy-metodik markazi

# TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



[www.trm.uz](http://www.trm.uz)



2024-yil 28-iyun

Toshkent

# “Ta’limda zamonaviy texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



## KONFERENSIYA HAQIDA

**“Ta’limda zamonaviy texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi konferensiya maqsadlari:**

Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o’qitishning interfaol shakl va metodlarini tahlil qilish;

Ta’lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi bo’yicha ilg’or xorijiy davlatlar tajribasini o’rganish;

Pedagogik dasturiy vositalar, shu jumladan, raqamli ta’lim resurslari va multimediali kontentlarni yaratish texnologiyalarini ko’rib chiqish;

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari va immersiv (VR, AR va MR) vositalarning samaradorliklarini muhokama qilish;

Ta’lim ishtirokchilarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalarni o’rganish.

Shuningdek, konferensiya orqali raqamli ta’limni rivojlantirish bo’yicha mavjud muammolarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularga innovatsion yechimlarni topish maqsadida tajriba va bilim almashish maydonini yaratish.

**Konferensiya o’tkazilish vaqti:** 2024-yil 28-iyun kuni.

**Arizalar va maqolalar qabulining so’ngi kuni:** 2024-yil 15-iyun.

**Konferensiya tili:** o’zbek, rus, ingliz.



+998930439191



[www.trm.uz](http://www.trm.uz)  
[info@trm.uz](mailto:info@trm.uz)



Toshkent shahri, Navoiy  
ko’chasi, 30-uy

## KONFERENSIYA TASHKILOTCHISI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

#### KONFERENSIYA SHO'BALARI YO'NALISHLARI:

1. Ta'limda raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va zamonaviy tendensiyalar;
2. Ta'limga oid multimedia va interfaol resurslarni yaratish texnologiyalari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari;
3. Raqamli ta'limni rivojlantirish: muammolar va istiqbollar;
4. Ta'lim jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash;
5. Pedagogik texnologiyalar: o'qitishning interfaol shakl va metodlari;
6. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion yechimlar.

#### RO'YXATDAN O'TISH VA KONFERENSIYA MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

Ishtirok etish uchun maqolalar 2024-yil 15-iyunga qadar [@markaz 2024 bot](#) yoki (@a\_mamatov1991, @akromnasyrov) telegram profillari orqali qabul qilinadi.

Konferensiyaga yuborilgan maqolalar ishchi guruhi tomonidan ko'rib chiqiladi, *talablarga javob bermaydigan maqolalar nashr etilmaydi.*

Konferensiyaga professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, metodistlar, amaliyotchi o'qituvchilar, magistrantlar, talabalar va ta'lim tizimidagi barcha muassasalar xodimlari hamda sohadagi boshqa amaliyotchi mutaxassislar ilmiy maqolalar yuborishlari mumkin.

Konferensiya materiallari elektron to'plam ko'rinishida 2024-yil 25-iyul kuni [www.trm.uz](http://www.trm.uz) sayti va [https://t.me/trm\\_uz](https://t.me/trm_uz) nomli rasmiy telegram kanalida e'lon qilinadi va maqolasi to'plamga kiritilgan mualliflarning har biriga **elektron sertifikatlar** beriladi.



+998930439191



[www.trm.uz](http://www.trm.uz)  
[info@trm.uz](mailto:info@trm.uz)



Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy

## KONFERENSIYA MATERIALLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maqolalar konferensiya mavzusiga oid, ilmiy va tugallangan fikrlarga asoslanib, taklif va tavsiyalar bilan quyidagi mazmunga rioya qilinganholda taqdim etilishi lozim:

1. Mulohaza (Maqola mavzusidan kelib chiqib, fikr-mulohaza yuritilishi lozim);
2. Takliflar (aniq va lo'nda ko'rsatilishi lozim);
3. Xulosa.

### **Maqolalarning tuzilishiga qo'yiladigan talablar:**

- ✓ maqolalar matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm,
- ✓ chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo'lishi kerak;
- ✓ Maqola matni Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 o'lchamida, 1,5 intervalda bo'lishi va kamida 5 bet bo'lishi lozim;
- ✓ maqolalarning sarlavha qismining birinchi qatorida uning nomi, ikkinchi qatorda muallifning ismi va familiyasi, ilmiydaraja va unvoni, elektron pochta hamda bog'lanish uchun telefon raqami, uchinchi qatorida muallifning ish joyi ko'rsatiladi;
- ✓ maqolalarning sarlavha qismidan keyin bir qator tashlab annotatsiya va kalit so'zlar keltiriladi;
- ✓ maqolaning matni kiritiladi;
- ✓ foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

**Izoh:** Konferensiya to'plamiga topshiriladigan maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif javobgar.

